

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARINI INKLUYUZIV TA'LIM JARAYONIDA O'QITISH BO'YICHA INDIVIDUAL REJA DASTURLARINI YARATISH VA O'QUV-METODIK ADABIYOTLARNI MOSLASHTIRISH

Xolmo'minova Madina Ne'matulla qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni inkluyuziv ta'limga jalg qilishda individual reja dasturlarini ishlab chiqish va o'quv metodik adabiyotlarini moslashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu jarayonning ta'lim sifatiga ta'siri, pedagogik yondashuvlar va innovatsion usullar tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы разработки индивидуальных программных планов и адаптации учебно-методической литературы для вовлечения детей с ограниченными возможностями в инклюзивное образование. Также анализируется влияние этого процесса на качество образования, педагогические подходы и инновационные методы.

Abstract: This article examines the development of individual educational plans and the adaptation of instructional materials to involve children with disabilities in inclusive education. It also analyzes the impact of this process on the quality of education, pedagogical approaches, and innovative methods.

Kalit so'zlar : Inklyuziv ta'lism , individual , reja, dastur , integratsiya , diagnostika, metodik ta'minot, taktil materiallar , Braille yozuvlari , differensial yondashuv , audiovizual material , multimediali darslik.

Ключевые слова: : Инклюзивное образование , Индивидуальный , План , Программа , Интеграция , Диагностика , Методическое обеспечение ,

Тактильные материалы , Шрифт Брайля , Дифференцированный подход , Аудиовизуальный материал , Мультимедийный учебник.

Keywords: : Inclusive education , individual, plan , program, integration, diagnostics,metadologic approach , audiovisual material , multimedia.

Bugungi kunda inklyuziv ta’lim tizimi imkoniyati cheklangan bolalarga umumta’lim muassasalarida ta’lim olish imkoniyatini yaratishning muhim omillaridan biridir. Bunday bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish pedagogik strategiyalarni doimiy rivojlantirishni talab etadi. Inklyuziv ta’limni samarali tashkil qilishda individual reja dasturlarini ishlab chiqish va metodik adabiyotlarni moslashtirish alohida ahamiyatga ega. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzARB masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda inklyuziv ta’limning ahamiyati ortib bormoqda. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun individual yondashuv asosida ta’lim berish ularning ijtimoiy integratsiyasini ta’minalash va shaxsiy rivojlanishiga yordam berish uchun zarurdir. Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim jarayonida individual reja dasturlarini yaratish va o‘quv-metodik adabiyotlarni moslashtirishning asosiy jihatlari ko‘rib chiqiladi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori Umumiyl o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi NIZOMNING AYNAN 5-bobi (Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda o‘quv-ta’lim jarayonini tashkil etish) da shunday keltirilgan : O‘quvchilar bilan individual ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish, maxsus pedagoglar tomonidan ta’lim jarayonidagi barcha darslarda, sinfdan tashqari va boshqa tadbirlarda amalga oshiriladi. (27-band O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son) Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar ochilgan maktablarda o‘quvchilarga individual ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish, rivojlanishiga

to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash, ularga turli ko'rnishdagi psixologik yordam berish maqsadida maxsus yordam ko'rsatish xonalari tashkil etiladi. Maxsus yordam ko'rsatish xonalari zarur maxsus jihozlar bilan ta'minlanadi. Inklyuziv ta'lism sinflari joriy qilingan maktablarga tyutor (yordamchi pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega volontyorlar va oliy ta'lism muassasalarining pedagogika yo'nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyat davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilinadi. Talabalarni inklyuziv ta'lism sinflari joriy qilingan maktablarga jalb etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi tomonidan belgilanadi. Inklyuziv ta'lism sinflarida o'quvchilarga oliy ma'lumotli, shuningdek, tegishli qayta tayyorlashdan o'tgan o'qituvchi yoki defektologlar tomonidan dars beriladi. Boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda o'quvchilarga defektologiya sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli pedagoglar, shuningdek, defektologiya (sohasi) bo'yicha tegishli qayta tayyorlashdan o'tgan boshlang'ich sinf o'qituvchilar tomonidan dars beriladi. Har bir o'quvchi uchun umumiyligi o'rta ta'lism dasturi va maxsus (korreksion) ta'lism dasturidan kelib chiqib muktab tomonidan tasdiqlanadigan yillik reja va mashg'ulotlar jadvali tuziladi. Bunda o'quvchining individual psixojismoniy xususiyatlari, qiziqishlari hamda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning tavsiyalari inobatga olinadi. O'quvchilarni o'qitish metodikasini ishlab chiqishda quyidagilar inobatga olinadi: tyutorning ta'lism jarayonida to'liq yoki qisman ishtiroki zarurati; yengillashtirilgan individual kun tartibini (topshiriqlar hajmi, hafta davomida qo'shimcha dam olish kuni va boshkalar) tashkil etish; o'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib dars mashg'ulotlarini tuzish; umumrivojlantiruvchi va fanlar yo'nalishidagi mashg'ulotlarni individual va guruh shaklida tashkil etish; psixolog, maxsus pedagog va boshqa mutaxassislarning maktabdan va sinfdan tashqari korreksion-rivojlaniruvchi mashg'ulotlarini tashkil etish. Ta'lism jarayonida qo'llaniladigan metod va vositalar bolalarning har tomonlama aqliy, jismoniy rivojlanishini ta'minlashga va yetuk shaxsni tarbiyalashga qaratiladi. Ta'lism inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, uning intellektual va ma'naviy kamolotiga zamin yaratadi. 50-

modda ta'lism olish huquqining kafolatlanishini belgilab, har bir fuqaroga bilim olish imkoniyatini ta'minlashni nazarda tutadi. Ushbu modda davlatning ta'lism tizimini rivojlantirish, barcha qatlamlar uchun adolatli ta'lism imkoniyatlarini yaratish va inklyuziv ta'lismi ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini aks ettiradi. Har bir bola, jumladan, alohida ta'lism ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar ham teng imkoniyatlardan foydalanishi lozim. Davlat inklyuziv ta'lism va tarbiyani ta'minlash orqali imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga to'laqonli integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlaydi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy adolat va inson huquqlarining hurmat qilinishini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 50-moddasida "Har kim ta'lism olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz talim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lism tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lism va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiyl o'rta talim va boshlangich professional ta'lism olishni kafolatlaydi. Umumiyl o'rta ta'lism majburiydir. Maktabgacha ta'lism va tarbiya, umumiyl o'rta ta'lism davlat nazoratidadir" ham alohida e'tibor berilgan. Ta'lism tashkilotlarida alohida ta'lism ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lism va tarbiya ta'minlanadi. Individual reja dasturlarining ahamiyati: Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus individual ta'lism dasturlari quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi: Bolaning o'ziga xos ehtiyojlarini va qobiliyatlarini inobatga olish; O'qitish jarayonini yanada moslashuvchan qilish; Bolaning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish; Ijtimoiy moslashuvini yaxshilash. Individual reja dasturlari pedagoglar, defektologlar va psixologlar hamkorligida ishlab chiqilishi kerak. Individual reja dasturlarini ishlab chiqish quyidagi bosqichlardan iborat: Diagnostika – Bolaning bilim darajasi, jismoniy va psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Maqsad va vazifalarni belgilash – Ta'lism jarayonida erishilishi kerak bo'lgan natijalar aniqlanadi. Metodik ta'minot – Maxsus o'quv materiallari va moslashtirilgan o'quv dasturlari ishlab chiqiladi. Baholash tizimi – Bolaning rivojlanish dinamikasi doimiy monitoring qilinadi. O'quv-metodik adabiyotlarni moslashtirish. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni moslashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: Matnlarning

soddalashtirilgan varianti; Audiovizual materiallardan foydalanish; Taktik materiallar va Braille yozuvlaridan foydalanish (ko‘zi ojiz bolalar uchun); Multimediali darsliklar va interfaol texnologiyalardan foydalanish. Inklyuziv ta’limda pedagogik yondashuvlar, ya’ni Pedagoglar imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda quyidagi metodlardan foydalanishlari tavsiya etiladi: Differensial yondashuv – O‘quvchilarning ehtiyojlariga qarab o‘quv jarayonini tashkil etish; Ko‘rgazmali metodlar – Amaliy mashg‘ulotlar va real hayot misollaridan foydalanish; O‘zaro hamkorlik metodlari – insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta’lim muhitini yaratish.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, har bir bola, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar ham teng imkoniyatlardan foydalanishi lozim. Davlat inklyuziv ta’lim va tarbiyani ta’minlash orqali imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga to‘laqonli integratsiyalashuvini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy adolat va inson huquqlarining hurmat qilinishini anglatadi. Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun individual reja dasturlarini yaratish va o‘quv-metodik adabiyotlarni moslashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Bu jarayon pedagoglarning malakasi, moslashtirilgan ta’lim resurslari va zamonaviy texnologiyalar yordamida yanada samarali amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni. – T.: O‘zbekiston, 2020.**
- 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish to‘g‘risida” gi qarori. – T.: 2021.**
- 3. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori “Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi”**

NIZOM

—Т.:

2021

*4.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 50-moddasi. –T.: 2024***5. Defektologiya asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2018.****6. Shvetsova T.V. “Inklyuziv ta'lif: metodologik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar”. – Moskva, 2017.****7. Qosimov A., Hamidov I. “Maxsus pedagogika va defektologiya”. – Toshkent: Sharq, 2019.**